

Buxoro tuman Axborot –kutubxona markazi

Bibliografiya xizmati

“Buxoroning muqaddas etti pirlari”
(Muqaddas qadamjolar tarixiga bag’ishlangan)

BIBLIOGRAFIK QO’LLANMA



Buxoro 2026 yil

**Shamga o‘xshagin, toki hammaga
ravshanlik bag‘ishla, o‘zing esa qorong‘ida bo‘l,
ho‘yu havas va nafs ahllari tutgan ishlar
barchasi zalolat (adashuv)dan iboratdir.
Ishlarda niyatning to‘g‘riligi eng muhim narsadir.
(Baxouddin Naqshband o‘gitlaridan)**

Buxoro — tabarruk zamin. Azal-azaldan turli savdo yo‘llari, madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan bu ko‘hna go‘shaning ohanrabosi, ko‘rku tarovati insonni doimo o‘ziga chorlab turadi. Buxoroga yiliga dunyoning turli nuqtalaridan minglab sayyohlar keladi. Ular bu sharif zaminda tarix bilan yuzlashadilar. Insoniyatning asrlar osha yashab kelayotgan ezgu tutumlari, madaniyati va qadriyatlariga guvoh bo‘lib, ularning mohiyatida yotgan umumbashariylik, boqiylik sirlarini anglashga urinadilar. Islom dini peshvolari, allomalari, aziz-avliyolari bosgan tuproqni, qo‘llarining qaynoq tafti qolgan masjidu minoralarni, ruhlari kezib yurgan manzillarni ziyorat qilishga oshiqadilar...

Buxoroga dunyo xalqlari e’tiborining kuchayib borayotgani bu qadimiy makonda turizm industriyasini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligidan dalolat.

Mutaxassislar sayyohlik zamonaviy iqtisodiyotning istiqbolli tarmog‘i ekanini ta’kidlaydi. Boshqa sohalar ravnaqi xom ashyo, ishchi kuchi, mablag‘ va yana ko‘plab resurslarni doimiy talab etsa, turizm uchun zamonaviy talablarga mos, bekamu ko‘st ishlovchi infratuzilma bo‘lishi kifoya: mevali daraxt misoli uzoq yillar naf keltiradi. Prezidentimiz mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarda ana shu jihatga ham alohida e’tibor qaratmoqda. Tarmoqni har tomonlama isloh etish bo‘yicha qator hujjatlar qabul qilinyapti. Ularga muvofiq, mamlakatimizda sayyohlik sanoati subyektlari faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda, soha


ravnaqi yo‘lidagi to‘siqlar olib tashlanib, chet elliklar uchun viza va ro‘yxatdan o‘tish tartiblari, bojxona nazorati soddalashtirilyapti. Tarmoqning yangi salohiyatli turlari, xususan, ziyorat turizmini rivojlantirishga e’tibor kuchaymoqda. Jumladan, Prezidentimiz shu yilning 16 fevral kuni Buxoro viloyatiga tashrif buyurganida insoniyat tamadduni beshiklaridan bo‘lmish ushbu zaminda ne-ne buyuk allomalar, diniy va dunyoviy ilm egalari yashab, ijod qilganini ta’kidlar ekan, ular mangu qo‘nim topgan maskanlarni yanada obod etib, bu joylarda ziyoratchilar uchun zarur sharoitlar yaratish borasida mutasaddilarga tegishli ko‘rsatmalar berdi. Yurtboshimiz Yetti pir — Abduxoliq G‘ijduvoni, Muhammad Orif Revgariy, Mahmud Anjir Fag‘naviy, Xoja Ali Romitaniy, Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol va Bahouddin Naqshband me’moriy majmualari nafaqat yurtdoshlarimiz, balki butun dunyo musulmonlari uchun tabarruk maskanlar hisoblanishini qayd etar ekan, ularning zamon talablari darajasida rekonstruksiya qilinishi O‘zbekistonga yangi sayyohlik yo‘nalishini ochishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladi.

Manbalarda Yetti piri komil Payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vassallamdan boshlangan “oltin silsila”ning davomchilari sifatida e’tirof etilgan. Ular ko‘ngilni nafsu hirsdan poklash, halol mehnat qilib umr kechirish, Allohni jon-dildan sevish g‘oyalarini targ‘ib qilgan. Ushbu aziz-avliyolarning asarlari, qilgan ishlari zamonlar osha odamlarni tarbiyalab, ularga dinu diyonat, odob-axloq, ezgu so‘z va amaldan saboq berib kelmoqda. Bugungi kunda Yetti pining muqaddas qadamjolarini yanada obod qilishga qaratilgan ishlar avjida. Ularning maqbaralari qayta ta’mirlanib, atrofi ko‘kalamzorlashtirilyapti,



viloyatning iqlim sharoitiga mos manzarali daraxtlar, noyob gullar

o‘stirilmoqda. Sayyohlar uchun mazkur hududlarda mehmonxonalar, choyxonalar, savdo majmualari, avtoturargohlar barpo etilyapti. Ziyoratgohlarni o‘zaro bog‘laydigan yo‘llar rekonstruksiya qilinib, zamonaviy infratuzilma shakllantirilayotir. Muhtasham madaniy obyektlar qurilib, transport-logistika, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari yaxshilanmoqda. Bu boradagi ishlar nihoyasiga yetkazilsa, Yetti pir qadamjolari ham shaklan, ham mazmunan kompleks qiyofa kasb etadi va ularni ziyorat qilish ko‘hna Buxoroning yangi “tashrif qog‘ozi”ga aylanadi. Bugungi kunda Buxorodagi tabarruk majmualarga



yurtdoshlarimizdan tashqari, Hindiston, Malayziya, Indoneziya, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Eron hamda Markaziy Osiyo mamlakatlaridan ziyoratchilar kelmoqda. Ular O‘rta asrlarda “Qubbat ul-islom” — “Islom dinining gumbazi” deb ta’riflangan bu muborak maskanda bugun ham diniy ta’lim muassasalari qizg‘in faoliyat yuritayotgani, musulmon axloqi va madaniyatini rivojlantirishga katta e’tibor berilayotganidan mamnun.

Buxoro – Naqshbandiya tariqati yettita buyuk so‘fiylarining vatanidir. Tasavvufning buyuk vakillari bu yerda yashab, diniy va ijtimoiy faoliyat olib borib, muborak Buxoroning vujudga kelishi va gullab-yashnashi, ma’naviy tarbiya va hissiy ruhni yuksaltirishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Bu yerda muqaddas so‘fiylarning dafn etilgan joylari – pirlar, islomiy ziyoratgohlar saqlanib qolgan.

Buxoroga ziyoratga kelganlarning ko'pchiligi o'z safarlarini Naqshbandiya ta'limotiga asos solgan ma'naviy ustoz Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniylar maqbarasini ziyorat qilishdan boshlaydilar. Abduxoliq G'ijduvoniylar payg'ambarning o'ninchi avlodi bilan ma'nan bog'liq. Maqbara ayvonining o'nta ustun va tayanchi o'ninchi avlodga ishora.

Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniylar davrida maqbara chillaxona vazifasini o'tagan bo'lib, u yerda qirq kunlik jazirama issiq davrda odamlar ibodat qilish uchun kelgan. Vaqt o'tishi bilan muqaddas ibodat joyi ardoqli ziyoratgohga aylanadi. Yaqin o'tmishda maqbara tashlandiqqa aylangan edi. Maqbara bugungi namunaviy shaklga ega bo'lishi uchun bir necha zamonadan omon o'tib kelishi kerak bo'ldi. Hozirda **Abduxoliq G'ijduvoniylar maqbarasi** qadimgi Sharqning bir qismi, er va osmon orasidagi rishta hisoblanadi.




BIRINCHI PIRI MURSHID

Xoja Abdulkholiq G'ijduvoniylar quddisa sirrihu – Xojai Jahon. 1103 yilda tug'ilgan. Muborak xoklari Buxoro viloyatining G'ijduvon shahri markazida. Хожа Абдулхалиқ ибн Абдулжамил Гиждувоний тасаввуфнинг йирик намояндаси, машхур авлиё, Хожагон номи билан шуҳрат қозонган Ўрта

Осиё тариқатининг асосчиси ва раҳнамоси, 1103 йилда Бухоро яқинидаги йирик савдо-сотиқ карвон йўлларида бўлмиш Гиждувон қишлоғида маърифатли оилада туғилган. Ўз қишлоғида дастлабки маълумотни олгач, 22 ёшида илмини такомилга етказиш мақсадида Бухорога келади. Бу ерда ўша даврнинг йирик олимлари ва тасаввуф намояндаларидан етарли таълим олади. Айниқса, унинг машхур тасаввуф раҳнамоси Абу Яъқуб Юсуф Ҳамадоний (ваф. 1140 й.) билан учрашуви муҳим аҳамиятга эга бўлди. Юсуф Ҳамадоний уни сўфийлик тариқатига жалб қилди.

Buxoroga ziyoratga kelganlarning ko'pchiligi o'z safarlarini Naqshbandiya ta'limotiga asos solgan ma'naviy ustoz Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniylar

maqbarasini ziyorat qilishdan boshlaydilar. Abduxoliq G'ijduvoniylar payg'ambarning o'ninchi avlodi bilan ma'nan bog'liq. Maqbara ayvonining o'nta ustun va tayanchi o'ninchi avlodga ishora. Xo'ja Abdulkholiq G'ijduvoniylar davrida maqbara chillaxona vazifasini o'tagan bo'lib, u yerda qirq kunlik jazirama issiq davrda odamlar ibodat qilish uchun kelgan. Vaqt o'tishi bilan muqaddas ibodat joyi ardoqli ziyoratgohga aylanadi.



IKKINCHI PIRI MURSHID Xoja Muhammad Orif ar-Revgariy quddisu sirrihu Xoja Orif Mohi- tobon nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Xoja Orif Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Revgar qishlogida tug'ilgan, yuz yildan ziyod umr ko'rib, 1259 yilda vafot etgan. Qabri Shofirkon markazida obod ziyoratgohga aylantirilgan. 1996 yil Xoja Orif jomesi qurildi. Naql etilishicha, Xoja Orif o'rta bo'yli, ochiq yuzli, katta ko'zli,

kamon qoshli, vujudidan mushku anbar hidi anqib turadigan zot bo'lgan ekan. Xoja Orif Hazrat Abdulkholiq G'ijduvoniylarning to'rtinchi xalifasi hisoblanadi. Hazrati Maxdumi A'zam Dahbediylarning "Maqomoti Xoja Abdulkholiq G'ijduvoniylar" asarida naql qilinishicha, Hazrat Xizr alayhissalom hazrati Abdulkholiq huzurlariga kelardilar. O'sha choq hazratning hamma shogirdlarini uyqu bosardi. Suhbat tugab, Xizr alayhissalom ketganlaridan so'ng shogirdlar beixtiyor uyqudan uyg'onardi. Shogirdlar orasida eng yoshi bo'lgan Xoja Muhammad ar-Revgariy Xizr alayhissalomning suhbatidan bahramand bo'lay deb ko'zlariga tuz sepdilar va og'rikning qattiqligidan u kishiga uyqu g'alaba qilolmadi. Suhbatdan bahramand bo'ldilar. Bu holni ko'rib Xizr alayhissalom dedilar: Siz orif bo'lgaysiz, inshaolloh!" Xoja Xizr alayhissalom nafaslarining barakatidan butun dunyoga Xoja Orif nomi bilan mashhur bo'ldilar. Xoja Orif ar-Revgariy "Orifnoma" kitobining muallifi. "Orifnoma" 1994 yil nashr etildi. "Orifnoma"da yozilganki, "Odob nek odamlar ziynatidir!.. Avliyolik alomati uchta: birinchisi – baland darajani egallaganda ham kamtar bo'lmoq; ikkinchisi – sabru toqati yetguncha parhez qilmoq, uchinchisi – to kuchi yetguncha insof qilmoq. Ochlik – zohidlar, zikr – oriflar taomi".

UCHINCHI PIRI MURSHID



Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy quddisu sirrihu Vobkent tumanidagi Anjir Fag'ni qishlogida tug'ilib, o'sha yerda vafot qilgan. Bu qishloqning hozirgi nomi Anjirbog'dir.

Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy ilmi qol va ilmi holni hazrati Xoja Orif Revgariydan o'rgangan. Ali Safiyning "Rashahotu

aynul hayot" kitobida yozilishicha, Xoja Ali ar-Romitaniy Xizr alayhissalomdan: "Shu asru ayyomda pir deb kimning etagidan tutsa buladi?" deb so'raganida Xizr alayhissalom: "Shu asru ayyomning murshidi Xoja Mahmud Anjir Fag'naviydir!" deganlar. Xizr alayhissalomning tavsiyasiga muvofiq Xoja Ali ar-Romitaniy Xoja Mahmudga murid bo'ladi. Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy qabrlari ustida yangi makbara, maqbara yonida hovuz va jome' masjidi qurilib ushbu joy obod ziyoratgohga aylangan.

TO'RTINCHI PIRI MURSHID



Xoja Ali Romitoni quddisu sirrihu Xojai Azizon nomi bilan mashhur. Bu zoti sharif Romitonning Ko'rgon qishlogida tug'ilgan. Maqomati goyat oliy, karomati bisyor, kasblari to'quvchi bo'lgan. "Rashahot"da yozilishicha, 1310 yil, "Maqomati Shohi Naqshband"da ta'kidlanishi- cha, 1321


yilda vafot qilgan. Qabri Ko'hna Urganchda, obod ziyoratgohdir. Xoja Alining Romitondagi Qo'rg'on qishlog'ida tabarruk qadamjolari bor. U yer obod qilinmoqda. Xoja Alining to'rtta mashhur xalifalari bo'lgan: Xoja Muhammad Kulohduz, Xoja Muhammad Xalloj, Xoja Muhammad Bovardiy, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy. Hoji Tesha bobo Naqshbandiyning aytishicha, Naqshbandxon ibn Sultonxon (1958 yil vafot qilgan) Xoja Ali ar-Rometani avlodi edi. Xoja Ali Romitoniyning "Risolai Azizon" kitobi mashhur. Bu kitobni fors tilidan o'zbek tiliga naqshbandiyshunos olima Gulchehra Navro'zova tarjima qilib nashr ettirdi.



BESHINCHI PIRI MURSHID

Xoja Muxammad Boboyi Samosiy quddisa sirrihu. Bu muborak zotning muborak qabri Buxoro viloyatining Romiton tumanidagi Simos qishlogida. **Samosiy**, Xoja Muhammad Boboyi Samosiy (13-asr oxiri, Romitan tumanidagi Samos qishlog'i — 1354) — xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik

namoyandasi, buxorolik 7 pirning beshinchisi. Xoja Ali Romitaniydan tahsil olib, uning vafotidan so'ng xojagonlik tarikatini boshqargan. Bahouddin Naqshband tug'ilganda uni ma'naviy farzandlikka qabul qilib, Sayyid Mir Kulolga Bahouddin tarbiyasi bilan shug'ullanishni topshirgan. S. bog'bonlik bilan kun kechirgan. S. kulohini Bahouddinga hadya etib, unga murshidlik qilgan. Bahouddin Naqshband ana shu kuloh sharofatidan balogardonlik karomatiga ega bo'lgan, deyilar. S. tug'ilgan qishlog'ida dafn qilingan. Qabri ustidagi maqbara, atrofdagi masjid va toshquduq mustaqillik yillarida ta'mirlangan.



OLTINCHI PIRI MURSHID

Sayyid Amir Kulol quddisu sirrihuning asli ismi Sayyid Amir Kalon bo'lib, Buxoro yaqinidagi Suxor qishlog'ida tug'ilgan. Bu zot taxminan 1287 yillarda dunyoga kelgan. Kulolchilik bilan shug'ullangani sababli Mir Kulol nomi bilan mashhur

bo'lgan. Mir Kulolning bir yuz o'n to'rtta avliyo bo'lgan xalifasi bor edi. eng yetuklari Bahouddin Naqshband, Mavlono Orif Degaroniy, Shayx Yodgor Valiy, Shayx Jamoliddin Dehai Osiyoi, Shayx Shamsiddin Kulol, Xoja Darzuniylardir.

“Maqomoti Amir Kulol”da naql qilinishicha, Hazrat Mir Kulol mujarrad (bo'ydoqlik) davrida tengqurlari bilan bog'da ittifoq bo'lib, choponlarini yuvibtilar va birodarlariga aytibiki, “Ey yoronlar, choponlarni paxsa devor ustiga yoymaylik, chunki u yerdagi tikanlarga ozor berilur. Zinhor daraxtlar shoxiga osmaylik, shoxlar egilib, jabr bulur. Zaminga ham tashlamaylik, o't-o'lanlar xarob bo'lur”. Bu gaplarni eshitib, ne qilarini bilmay qolgan birodarlar surabtiki: “Amir, siz choponingizni qanday qilib quritasiz?” Hazrat

debt: “Men choponimni ustimga tashlab, oftobro‘yada o‘tiranman va shunday qilib quritaman. Ey yoronlar, agar paxsa devordan bir parcha uzilib erga tushsa yo daraxt shoxi sinsa, yo chorva yeydigan o‘tlarga zarar etsa, Xudovandga ne uzr bildirurmiz? Zinhor nomashru’ (shariatga zid) ishlar, kichik bo‘lsa ham qilmang. Chunki kichik gunoh takrorlanaversa, do‘zaxga olib borur. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam istig‘for (kechirim so‘rash) bilan katta gunohlar kechiriladi, muttasil qilinaverilsa, kichik gunohlar ham kattaga aylanadi, deganlar”.

Sobiq Ittifoq davrida Hazrat Mir Kulol jomesi yiqitildi, ziyoratgohi esa sho‘r bosgan, qarovsiz holga kelgan edi. Istiqloq yillarida Mir Kulol ziyoratgohida yangi jome masjid, mehmonxona, darvozaxona qurildi. 2007 yilda Sayid Mir Kulol qabri ustida mahobatli maqbara qad rostladi. Atrofida ulkan bog‘ barpo qilindi.



YETTINCHI PIRI MURSHID

Hazrati Sayyid Muhammad Bahoul-haq val-millat vad-dunyo ud-din Naqshband ibn Sayyid Jaloliddin. Bu kishi sohibi karomat, olimi rabboniy, Qur‘oni karim va payg‘ambar alayhissalomning sunnatlarini xalqqa yetkazib, islom dini

rivojiga muhim hissa qo‘shgan valiyullohdur.

Bahouddin Naqshband hazratlari 1318 yil Buxoro shahri yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog‘ida tug‘ilgan. Ul zoti sharif sharofatidan qishloqning nomi Qasri Orifonga aylangan. Abulhasan Muhammad Boqir bin Muhammad Alining “Maqomoti shohi Naqshband” kitobida yozilishicha, Bahouddinga bevosita Sayyid Mir Kulol ustozlik qilgan. Hazrat ona tomonidan siddiqiydir, ya‘ni nasablari Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi. Bahouddin Naqshband hazratlari 1389 yil Qasri Orifonda vafot etgan.



Bahouddin majmuasi - shayx

Bahouddin Naqshband mozori yonidagi hazira — ansambl (Buxoro viloyati, 16-a.). Mozor Abdulazizxon buyrugʻi bilan tartibga solinib, hazira barpo etilgan va 1544 — 45 y.larda majmuaning eng katta binosi — xonaqoh qurilgan. B. m.

daxmalar (Daxmai shohon va Baho-uddin daxmasi), maqbara, 2 masjid, saqoxona, hovuz, quduq, minora, Madrasa va Abdulazizxon xonaqohidan ibo-rat. Majmua kichik gumbazli chortoq darvozaxonadan boshlanadi. Darvozadan oʻtgach, oʻngda kichkina masjid, chap to-monda ziyoratchilar uchun turli binolar boʻlganligi maʼlum. Yoʻl davomida chapda xonlar mozori — Daxmai shohon joylashgan. Daxmai shohon toʻgʻri toʻrtburchak tarhli, bal. 2.5 m, usti kulrang marmar bilan qoplangan. Unda marmar oʻymakorligi, xattotlik saiʼ-atining ajoyib namunalari mavjud. Marmarlarga tokchalar, ustunchalar, sharafalar, sarv surati va b. bezaklar oʻyilgan; naqshlar baʼzida yozuvlar bilan aralash uchraydi.

Daxmai shohondan oʻtgan yoʻlak nafis bezatilgan peshtoqqa olib keladi (peshtoqning ikki tabaqali eshigiga "bagʻdodi" va "guli nav" usulida naqshlar oʻyilgan). Peshtoqning eshigidan oʻtilgach, oʻngda gumbazli mak-bara bor (unga kim dafn qilinganligi nomaʼlum). Chapda — kiraverishda 6 us-tunli (soddagina), oldi ayvonli Muzaffarxon masjidi joylashgan. Masjid yoniga 2 ustunli Hakim qushbegi masjidi tushgan (masjid mehrobida ajoyib mujassamotli namoyon bor). Uning jan.da naqshdor, shim.da naqshsiz ayvonlar bor. Bahouddin dax.masi marmar qoplangan kattagina murabba tarhli supa boʻlib, atrofi chiroyli marmar panjara bilan oʻralgan. Undan sal nari, shimolda—tomonlari 9,5 m keladigan aylana zinali marmar hovuz, uning shim. tomonida kichikroq, koʻrkam chortoq saqoxona bor. Bahouddin daxmasi bilan hovuz oraligʻida quduq, uning yonidagi chiroyli shiypandan qadimda ziyoratchilarga turli shaklli idishlarda "muqaddas" suv ulashilgan.

Haqim qushbegi masjidining shim. da koʻrimsizgina bir minora, undan narida hovlidagi hovuzdan 3 baravar katta boshqa hovuz bor. Hovlining tashqarisi (shim.-gʻarbi)da turtburchak supa ustida xonaqoh (eni 37 m, boʻyi 40 m li) qad koʻtargan. Markazida atrofi pesh-toq ravokli ayvonlar bilan

o'ralgan masjid, uning to'rida chorzamin uslubida ishlangan qirma naqshli mehrob mavjud. Imoratning har ikki tomonida simmetrik qurilgan ikki qavatli kattakichik hujralar bo'lgan. B. m.ga undan 0,5 km shim.-sharqda joylashgan "Qasri Orifon" masjidi ham kiradi; uning yonida pastakkina minora bor.. B. m. 16-a. me'morligining yangicha ansambl tu-zishda erishilgan yutuqdaridan namuna bo'lib, qo'sh binoli simmetrik ansambllardan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'raev, Halim. Buxoro tarixi [Matn] : o'quv qo'llanma / Halim To'raev. - Buxoro : "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti . –2020. – 320 b.
2. Murodov G Tarixiy romanda syujet muammosi Toshkent : Fan nashriyoti. –2008. – 40 b.
3. Buxoro. – Toshkent : O'zbekiston. –1997. – 240 b.
4. Buxoriy I. Moziydan taralgan ziyo . –Toshkent : Sharq nashriyoti. –1998.- 410 b.
5. Tohirho'jaev, A Samariya . –Toshkent : Kamalak. – 1991. – 336 b.
6. Bahouddin Naqshband yoki etti pir – Toshkent : Yangi asr avlodi. – 2010. – 24 b.
7. Buxoriy, S. Tarixiy romanda syujet muammosi Toshkent : Fan nashriyoti. – 2008. – 40 b.
8. Buxoriy, S. Shofirkonning tabarruk ziyoratgohlari (Tarixiy-ma'rifiy kitob) . – Buxoro nashriyoti. –2010. – 126 b.
9. O'zbekiston obidalaridagi bitiklar. –Toshkent : 2016. – 560 b.
- 10 Rajabov, Q. Buxoro tarixi: / Q. Rajabov, S.Inoyatov. – Toshkent: Tafakkur. – 2016. – 460 b.
11. Sharipova , O . Abduxoliq Gijduvoni Matn : monografiya. –Buxoro: 2020. – 156 b.
- 12 Idris Shoh Naqshbandiy tariqati. –Risola : O'zbekiston. –1993. – 62 b.
13. To'lqinov, H. Burok vodiysi yohud Bahouddin Naqshband qissasi: roman. –Toshkent : Yangi asr avlodi. – 2019. – 448 b.
14. Xoja Abduholiq Gijduvoni Lug'at. – Toshkent : O'zbekiston. –2003. – 126 b.
15. Buxoriy, S. Bahouddin Naqshband yoki etti pir. –Toshkent : Yozuvchi. – 1993. – 16 b.

Vaqtli matbuot nashrlari :

- 1 Maxmudova, M. Dunyo markaziga aylangan makon [Buxoro tarixi haqida] / M. Maxmudova // Galajsiyo ovozi. –2021. – 18 dek.
2. Султонмуродов, О. Анъанавий Нақшбандхонлик анжумани. [Нақшбандия Бухоро тасаввуф мактаби] // Вухоронома. – 2021. – 29 sent.
3. Бухорий, С.[Бухоройи Шариф ҳақида] / С. Бухорий // Маънавият сарчашмаси. – 2021. – 15 июнь.
4. Жаҳонова, М. Бухоро дурдоналари [тарихий обидалар] / М. Жаҳонова /// Маънавият сарчашмаси. – 2022. – 15 июль .
5. Ёдгоров,Э. Бухоро воҳасидаги 7 та обида YUNESKOнинг маданий мерос рўйхатида / Э. Ёдгоров // Вухоронома. – 2022 . – 12 июль.
6. Бухорий, С. [Бухоройи Шариф ҳақида] / С. Бухорий // Маънавият сарчашмаси. – 2021. – 15 июнь.
7. Buxoro –go’zal makon, havas qiladi jahon:[xalqaro zardo’zlik va zargarlik festiovali boshlandi] // Buxoro yoshlari. – 2022. – 4 may.
- 8 Но’jalova, S. Ziyorat taassurotlarga boy bo’ldi:[Etti pir ziyorati boy merosimiz] / S. Но’jalova // Вухоронома. – 2022. – 22 yanv.
- 9 Мирова, Д. Бухорони “Қуббатул ислом” шарафига етказган аллома / Д. Мирова // Вухоронома. – 2022. – 22 янв .
- 10 Изомов , А. Аждодлардан ибрат олайлик / А. Изомова // Вухоронома. – 2022. – 24 dek .
11. То’хтаева, D. Ulug’ ziyoratgoh [Buxorodagi 7 pirlar haqida] / D. То’xtayeva // Buxoro yoshlari. – 2023. – yanv.
12. Худойбердиев,Ў. Қўхна ва боқий Бухоро:[Бухоро ёдгорликлари] / Ў. Худойбердиев // Вухоронома. – 2022 . – 31 авг.

13. Ho'jalova, S. Ziyorat taassurotlarga boy bo'ldi: [Etti pir ziyorati boy merosimiz] / S. Ho'jalova // Buxoronoma. – 2022 . – 22 yanv.
14. Kўziyev , T. Tarix-ғурур манбаи [муқаддас маскан -Бухоро] /T. Kўziyev T. // Buxoronoma. – 2022 . – 31 авг.
15. Юсупова, М. Етти пир зиёрати: [меъморий обидалар] / М. Юсупова // Buxoronoma. – 2022 . – 31 авг.
16. Сулаймонов, Р. Буюк миллатга хос юксак ғурур – ифтихор: [маданият ёдгорликлари] / Р. Сулаймонов // Buxoronoma . – 2022 . – 17 март.
17. Сулаймонова, Ш. Пирлар юрти фарзандиман [аждодлар фахримиз] / Ш. Сулаймонова // Buxoronoma. – 2021. – 24 dek .

Tayyorladi : M. Maxmudova